



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI RAISING F A R M O Y I S H I

2024 -yil «26» iyul

8 -son

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyati ochiqligini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli va 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raising 2024-yil 17-maydagi “Oliy sudning ochiqlikni ta‘minlash yo‘nalishidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi”da belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 30-moddasiga asosan:

F A R M O Y I S H B E R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli (bundan buyon matnda PF-6247-sonli Farmon deb yuritiladi) va 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-sonli (bundan buyon matnda PF-154-sonli Farmon deb yuritiladi) farmonlari ijrosini o‘z vaqtida tashkil etish hamda monitoring qilib borish bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. PF-6247-sonli Farmon bilan tasdiqlangan Ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxati va ularning e‘lon qilinishi uchun mas‘ul tarkibiy tuzilmalar 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. PF-154-sonli Farmon bilan tasdiqlangan baholash mezonlarining indikatorlari ijrosi yuzasidan mas‘ul xodimlar ro‘yxati 3-ilovaga ko‘ra tasdiqlansin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

Tuzilmalarning mas'ul xodimlari ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni Oliy sudning rasmiy veb-saytida belgilangan muddatlarda e'lon qilinishini ta'minlasin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi mas'ul tarkibiy tuzilmalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni o'z vaqtida Oliy sudning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralari ko'rsin.

Ishchi guruhi ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni Oliy sudning rasmiy veb-saytida o'z vaqtida e'lon qilinishini nazorat qilsin.

Har yarim yilda ishchi guruhi tomonidan ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, rejalashtirilgan loyihalar va chora-tadbirlar ijrosi muhokama qilinsin.

5. Ushbu farmoyish qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining 2021-yil 9-iyuldagi 305-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur farmoyishning bajarilishini ta'minlash Oliy sud raisining o'rinbosari I.Muslimov zimmasiga yuklansin.

Oliy sud raisi



B.Islamov